

NUROBOD TUMANIDAGI BA'ZI OYKONIMLAR HAQIDA*Sevara Suyunova**Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti Filologiya
fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Maqolada Nurobod tumanidagi ba'zi oykonimlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning o'zgartirilishi va uning sabab-oqibatlarini haqida ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Antroponim, toponim, "yoqimsiz" nomlar, urug', qabila, toponimik siyosat

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan buyon ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdiki, buni faqat yurt ravnaqi va taraqqiyotiga befarq kishigina ko'rmasligi mumkin. Nafaqat ilm-fan, texnologiya, ta'limga katta e'tibor qaratildi, balki milliy qadriyat va an'analarni tiklash borasida ham salmoqli ishlar olib borildi. Shuningdek, milliylikimizning bir qismi bo'lgan joy nomlari, ya'ni toponimlar ham chetlab o'tilmadi.

Geografik nomlarda tilning sotsial xususiyatlari uning boshqa sathlariga nisbatan o'z ifodasini ko'proq topadi. Demak, mamlakat ijtimoiy hayotida yuz berayotgan hodisalar eng avvalo uning toponimiyasida ko'zga tashlanadi. [1, 22]

Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida ham mafkuraviy maqsadlarni ko'zlab qo'yilgan ko'plab joy nomlari bizning milliylikimizga yot edi. Shu sababli 1996-yil 31-may sanasida "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Professor E.Begmatov "Istiqlol davridagi O'zbekiston davlati olib borayotgan toponimik siyosat... joylarga nom berish, ular nomini o'zgartirishning ilmiy-obyektiv tamoyillarini yaratishga qaratilmoqda" deb yozadi va ushbu tamoyillarning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

1. Eski tuzum mahsuli bo'lgan nomlarga munosabat tamoyili.
2. Joylarni nomlash, ular nomini o'zgartirishda mafkuraviy qarashlarni cheklash tamoyili.
3. Shaxs atoqli otlari (antroponim)ning toponimiya tizimiga o'tishini cheklash tamoyili.
4. Toponimlarni muhofaza qilish va asrash va hokazo.

Biz esa Nurobod tumani hududidagi toponimlarni o'rganish jarayonidamiz va eng avval

Nurobod toponimining o'zini ko'rib chiqishimiz ma'qul ko'rindi.

1958-1962-yillarda sanoat maydonchasi qurilishi va konni o'rganish jarayonida qishloq xalq orasida Sotsgrad deb nomlangan. 1962-yilda yopiq tipdagi geologiya-qidiruv posyolkasi „Yujniy“ deb nomlandi, keyinroq aholi punktiga kon nomini „Sobirsoy“ deb berish masalasi ko'rib chiqildi, biroq O'zSSR KPSS Komiteti uning nomini Sovetobod nomi bilan tasdiqladi.

Sovetobod tarixi 1964-yilga borib taqaladi, dastlab Sobirsoy uran rudasi koni hududida geologik qidiruv ekspeditsiyasi (partiya) mutaxassislarining kichik qishlog'i shaklida bo'lib, uni qidirish va qazib olish uchun Janubiy kon, keyinchalik NKMK ma'muriyati tuziladi, keyin esa shahar quriladi. [13]

Nurobodning tashkil topishi Xalq demokratik partiyasi Nurobod tuman kengashi raisi Raimuzok Usanov xotiralarida shunday eslanadi:

Nurobod (sobiq Sovetobod) tumani O'zbekiston Oliy Kengashining 1975 yil 26 noyabrda farmoniga ko'ra viloyatdagi Past Darg'om, Kattaqo'rg'on, Narpay, Paxtachi tumanlarining dasht, cho'l, tog' hududlaridagi qishloqlari hisobidan tashkil etilgan.

Sobiq Sovetobod posyolkasi (hozirgi Nurobod shahri) tuman markazi etib belgilangan.

Samarqand viloyatida bu yangi tumanning tashkil etilishidan maqsad hududda chorvachilikni, xususan, qorako'lchilikni jadal rivojlantirishga qaratilgandi. Shu maqsadda bir emas, to'rt tumanning dasht, cho'ldan iborat bepoyon maydonlari yaxlit tumanga birlashtirilgandi.

Sovetobod (hozirgi Nurobod)ni tashkil etish g'oyasini o'sha paytdagi Samarqand viloyatining birinchi rahbari Bekto'sh Rahimov ilgari surgan. Bu g'oya respublika rahbari Sharof Rashidov tomonidan qo'llab-quvvatlangan. [9, 14]

Shunday qilib, 1975-yil Sovetobod (hozirgi Nurobod) nomli dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashtirilgan yangi tuman tashkil etilgani bois, Paxtachi, Narpay, Kattaqo'rg'on, Pstdarg'om rayonlarining chekka qishloqlar Sovetobod rayoniga qarashli bo'lib qoldi.

1983-yilgacha shahar tipidagi Sovetobod posyolkasi, 1975-yildan Samarqand viloyatidagi shu nomdagi eng yirik tuman markazi bo'lib kelgan. 1983-yildan Samarqand viloyati Sovetobod tumani Nurobod shahri, 1992-yildan esa butun tuman Nurobod deb atala boshlandi. Ushbu ma'lumotdan bilishimiz mumkinki, Sovetobod toponimi yuqoridagi toponimik siyosat tufayli o'zgartirilgan bo'lishi kerak.

Nurobod toponimi esa "nur" hamda "obod" leksemalaridan tashkil topgan bo'lib, obod topoleksemasi atoqli va turdosh otlardan, ba'zan sifatlardan geografik nom yasaydi. "Obod" so'zi toponimist T.Rahmatov qayd qilishicha, nomlar tarkibida kelib, "yangidan qurilgan, tashkil qilingan" ma'nosini beradi. Markaziy Osiyoda Obod terminining kirib kelishi arab bosqini davrida, taxminan VII-VII asrlarda fors-tojik

dialektlarining tarqalishi bilan bog'liq. Yoqut Hamaviyning xabar berishicha, XIII asrda ayniqsa mahsuldor bo'lgan. Viloyatimizda Rahmatobod arig'i (Samarqand tumani), Yangiobod arig'i (Bulung'ur tumani) singari ko'plab geografik nomlar mazkur terminning joy nomlari yasashda hozir ham sermahsul ekanligini ko'rsatadi. [6, 153]

Demak, Nurobod tumani ham yangi tashkil etilganligi bois shunday nomlangan.

Toponimlar nomini o'zgartirish, ularni qayta nomlash uchun bir qancha sabablar mavjud bo'lsa-da, ularni o'zgartirmasdan o'z holicha saqlash milliyligimizni asrashga ko'proq xizmat qiladi. Chunki har bir joy nomi o'zida xalqning ma'lum bir tarixi, o'ziga xosligini ifodalaydi. Bu masalaga jiddiy e'tibor qaratganligi tufayli Angliya hamda Islandiya mamlakatlarida 1900-yildan beri hali biron marta joy nomlarida yangilanish kuzatilmagan.

Toponimlar nomini o'zgartirishga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin va bu, albatta, eng asosiylari sifatida qaralishi kerak:

1. Mafkuraviy talablar tufayli nomlarni yangilash. Bunga sobiq sho'ro davri siyosati yaqqol misol bo'la oladi, shuningdek, milliyligimizga yot bo'lgan, xalq tiliga o'zlashib ketolmagan bunday nomlarni istiqloqlarga erishgach o'zgartirilishi ham ayni shu talab tufayli amalga oshirilgan: Babushkin – Boborahim Mashrab, Piloto – Boysunqur Mirzo, Chempion – Payrav Sulaymoniy, Titov – Rudakiy va boshqalar.

2. Ayrim aholi punktlarining yiriklashishi, ikki va undan ortiq hududlarning birlashuvi

natijasida nomlarni yangilash. Bunday holatlarda ikki xil usul orqali nomlash mumkin:

- ikkisidan birining nomini umumiy nom sifatida qabul qilish;
- umuman yangi nom o'ylab topish.

Ko'proq birinchi usuldan ko'proq foydalaniladi, sababi, avvalo, yangi nom qo'yish, oson ish emas, ikkinchidan, bu hududlar uchun qo'yilgan nom orientr vazifasini bajarishi lozim bo'ladi. Nurobod tumani hududida "Ittifoq" mahallasi kengayishi natijasida tarkibidan Toshquduq va Musoqoq qishloqlari ajratib olindi va "Ittifoq" nomi ostida birlashtirildi. Hududlar kengaygan holatda, albatta, yangi nom qo'yish kerak bo'ladi. Shuningdek, O'zR Oliy kengashining 1987-yil 24-dekabrda 2143-XI raqamli farmoni bilan viloyatimizning Jomboy tumanidagi Saroy va Saroyqishloq aholi punktlari birlashtirilib Saroy, Bekbo'ta va Qo'rg'onchabaliq aholi punktlari birlashtirilib Bekbo'ta, Kattaqo'rg'on tumanidagi O'rtaburgan va O'rtaqurg'on aholi punktlari birlashtirilib Burgan deb nom berildi va hokazo.

3. Ma'nosi yoqimsiz bo'lgan nomlarni o'zgartirish. Ba'zi kishilar bu fikrni qo'llab-quvvatlasa, qolganlar tamoman aksi. Bunday nomlarga misol qilib, Nurobod tumani hududida Hurkak, Karlar, Ingichka, Og'zikatta, Olg'a joy nomlarini, bundan tashqari boshqa tumanlarda Ko'rqishloq, Yalang'och, Shoxolqishloq (Tayloq), Chinoqqishloq, Ashkadiqishloq, Quvkalla (Qo'shrabot), Kampiro'ldi, Tentak,

Ko'tarakal, Kalqishloq (Payariq), Ishtonsiz (Jomboy), Chuvilloq (Narpay) kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Vaholanki, bu toponimlardan Chuvilloq, Yalang'och, Takalar urug' nomlarini bildiradi, albatta, qolganlari ham asil ma'nosida butunlay boshqa tushunchani ifodalaydi.

Ammo shu sabab – “yoqimsizlik” asosida O'zR Oliy kengashining 1987-yil 24-dekabrda 2145-XI raqamli farmoni bilan Payariq tumanidagi Kallakesar aholi punkti nomi Paxtakor, Urgut tumani hududidagi Jomontelpak toponimi Gulobod nomiga almashtirildi.

Fikrlab qaraydigan bo'lsak, aholi punktlari kengayishi yoki birlashtirilishi orqali nom almashishi salbiy hodisa emas, lekin sobiq sho'ro davridagi kabi mafkuraviy sabablar yoki ma'nosi “yoqimsiz” bo'lgani sababli toponimlar nomini o'zgartirish milliy qadriyatlarni eskilik sarqitiga aylantirish bilan barobardir. Sababi biz bu joy nomlariga milliylikimizning bir bo'lagi, tariximizning jonli guvohi tushunchalari bilan yondashadigan bo'lsak, hech qanday muammo tug'ilmaydi. Masalan, inglizlar o'z tillarida uchraydigan Suaynzxed (Cho'chqaboshi), Gridi Gat (Ochko'z ichak), Agli (Xunuk), Nasti (Iflos) kabi nomlarni faol qo'llaydiki, bunda ular o'z an'ana va milliylikini saqlab qolishga urinayotgani ko'zga tashlanadi, taajjubki, bizda bunday toponimlarni o'zgartirishga moyillik kuchli.

Yana shunday nomlar borki, ular bugungi kunda salbiy ma'no kasb etayotgandek tuyulsa-da, bu so'zning etimologiyasini o'rganadigan bo'lsak, umuman boshqa ma'no anglashilganiga guvoh bo'lamiz. *Jinnidaryo*, *Jiliko'l* gidronimlari tarkibidagi *jili* hamda *jinni* indikatorlari bir paytlar *yo'lli* shaklida bo'lib, vaqtlar o'tgani sayin shu ko'rinishga kelgan. Bu indikator *qurimaydigan suv yo'li* degan ma'noda qo'llangan, asosan buloqlardan suv oladigan daryo, ko'l kabilarga nisbatan qo'llangan. *Yettiqiz*, *Yetimqiz* toponimlari tarkibidagi qiz so'zi ham qoya, cho'qqi, balandlik; tog'ning soya tushmaydigan joyi kabi ma'nolarni bildiradi. Yetimqiz nomi yolg'iz tepa ma'nosini anglatadi.

Bundan ko'rinadiki, toponimlarga o'zgartirish berilishidan oldin nafaqat tilshunoslik, balki tarix hamda geografiya fanlari bilan tanishib, milliylikimiz namoyandasi bo'lgan bunday nomlarni saqlab qolishga harakat qilishimiz lozim,

Biz esa Nurobod tumani hududida “yoqimsiz” deb hisoblangan ba'zi nomlar etimologiyasiga e'tibor qaratishni lozim deb topdik va Hurkak, Karlar, Cho'nqaymish, Kattaqora, Chilovjira, Qoraqursoq, Kalta, Olg'a kabi qishloq nomlari misolida ko'rib o'tmoqchimiz.

Bozorboy O'rinboyev qalamiga mansub “Asrlardek barhayot nomlar” asarida quyidagi ma'lumotlarga duch keldik:

Cho'nqaymish – Nurobod tumanidagi qishloq. Alohida ajralib turgan balandlik, tepalik, qirlik, tosh cho'nqaymish deb ataladi. Shundan Cho'nqaymish qishlog'i nomi olingan;

Chilovjira – Nurobod tumanidagi qishloq. Chilov – chilon – jiydaning yumaloq mevali turi; jir - yirmoq, yormoq so'zining o'zagi; -a affiksi fe'ldan ot yasovchi; jira – uyik, yoriq.

Chilonjira – yer yorig'ida o'sgan chilonzor atrofidagi qishloq. Narpay tumanida Chilunjur (Chilonjir) nomi ham shu ma'nodadir. Ko'rib turganimizdek, Chilonjira hamda Chilovjira nomlari asli bitta so'z bo'lib, Chilovjira toponimida tovush o'zgarishi hodisasi kuzatiladi.

Tavonbuloq – Nurobod tumanidagi qishloq. Tarkibi tavon – tovon – quyi, adoq. Xuddi shu nomda urug' ham bo'lgan. Neko'zlarning bir tarmog'i tavonneko'z. Tavonbuloq – buloq yonidagi tovonlarning qishlog'i. U tovoqbuloq bo'lishi ham mumkin. Birinchisida etnooykonim, ikkinchisida gidrooykonim bo'ladi.

Sepki – Nurobod tumanidagi qishloq. Tarkibi sep+ki<ket<kat. Sep – qiz uzatishda unga ota-onasi tomonidan berib yuboriladigan mol, bisot, joy. Kisket – kat – qishloq, manzil. Sepki – ota-onasi tomonidan berilgan joy;

Sarson – Nurobod, Ishtixon tumanlaridagi qishloq. Qo'ng'irotlarning kichik urug' tarmog'i sarson deb atalgan;

Og'zikatta – Nurobod tumanidagi qishloq. Tashlab ketish natijasida og'zi nurab qolgan, lekin ichida suv bor bo'lgan quduq. Og'zikatta – katta quduq yonidagi qishloq;

Olg'a – Nurobod tumanidagi qishloq. Toponim oldinga tomon yurmoq, ilgari qarab siljimoq ma'nosidadir;

“Olg'a” kolxozi 1930-yilda tuzilgan bo'lib, uning birinchi raisi Abdurahmon Saidov, xo'jalik kotibi Sa'din Pitakov bo'lgan. Dastlabki yillarda xo'jalikda qorako'l qo'ylarni ko'paytirish maqsadida ish olib borilgan.

1992-yilda Olg'a ijara xo'jaligi tashkil etilib, uning rahbari etib Eshmurza Ibodullayev tayinlangan. O'sha yillarda xo'jalikda 32 ming bosh qo'y-qo'zi va 6 ming gektar lalmikor g'alla maydoni mavjud bo'lgan. Ya'ni bu qishloq ham qo'rako'lchilikni rivojlantirish uchun tashkil etilgan bo'lib, maqsadga erishish va yanada olg'a siljish uchun shunday nom bilan atalgan. [14]

Kechkeldik – Nurobod tumanidagi qishloq. Toponim kech – keldek kel va dex>din>dik qismlaridan iborat bo'lib, u kech – kel “kichik ariq”, dik “qishloq” demak.

Kechkeldik – qishloqdan oqib chiquvchi kichik ariq.

Kattaqora – Nurobod tumanidagi qishloq. Qirq qabilasining bir tarmog'i qora deb atalgan.

Kalta – Nurobod tumanidagi qishloq. Kalta aslida tojikcha kanda bo'lishi mumkin. Chunki Kalta qishlog'i joylashgan o'rin kanda so'zining “tashlandiq suvlar to'plangan chuqur ariq, o'ymoq, kovlamoq” degan ma'nosiga mos keladi. Kalta<kanda – tashlandiq suvlar to'plangan chuqur ariq demak. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, qipchoq qabilalari tarkibida sarikanda degan urug' bo'lgan. *T.Nafasov va V.Nafasovning* “O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati” da **Kaltatoy**

toponimi haqida fikr yuritar ekan, o'zbek urug'laridan birining nomi sifatida keltiradi. Shuningdek, **Kandabuloq** qishloq nomi Kanda [fors-tojikcha]-o'yilgan chuqur, ya'ni qazib chuqur joydan suv chiqarilgan buloq atrofidagi qishloq ekani aytib o'tiladi. Bundan tashqari **Z.Do'simov, X.Egamovlarga** tegishli "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati"da ham quyidagi ma'lumotlar ko'rib o'tildi: "Kaltatoy – qishloq. Jizzax oblastining Baxmal rayonida. Bu so'z toponim sifatida respublikamizning boshqa oblastlarida, jumladan Qashqadaryo, Sirdaryoda ham uchraydi. Kaltatoy o'zbek urug'laridan birining nomidir. Revolyutsiyadan oldin kaltatoylar Farg'ona vodiysida, Nurota va Molguzar tog'larining shimoliy yonbag'rida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida, Surxon-Qoratog' daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida, Afg'onistonning tog'li rayonlarida yashagan". Shuningdek, "Kandabuloq — qishloq. Farg'ona oblastining Quva rayonida. Kanda forscha so'z bo'lib, «uyimoq, kovlamoq» ma'nosiga ega. Kandabuloq «uyilgan chuqur, ko'zlangan buloq» degani. Buloqqa yaqin joydagi qishloq gidronim orqali atalgan. Namangan oblasti, Chorkesar adirlarida ham Kandasoy toponimi mavjud", deyiladi. **Nosirjon Oxunov** esa "KANDABULOQ – Farg'ona viloyati Quva rayonidagi qishloq. Turarjoy buloq nomi bilan atalgan. Atamaning birinchi qismidagi kanda so'zi fors-tojik tilida "kovlangan, qazilgan" ma'nosini bildiradi. Kandabuloq – "qazilgan buloq", "chuqur buloq" demakdir" fikrlarini berib o'tadi.

Demak, ushbu nom nafaqat urug' nomi, balki buloq yoki zovur atrofida joylashgan qishloq degan ma'noni ifodalashi ham mumkin. Shu sababli ushbu qishloq nomiga ta'rif berishdan oldin joylashuv o'rniga alohida e'tibor berish lozim.

Qolgan lug'atlarda esa bu toponimlar haqida deyarli uchratmadik. Bozorboy O'rinboyev qalamiga mansub "Asrlardek barhayot nomlar" asari esa Samarqand viloyati toponimlariga bag'ishlangani bois ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Ko'rib turibmizki, har bir nomning o'z atalish sababi va tarixi bor. Ularni bilmasdan, o'rganmasdan turib, shunchaki, "eskilik sarqiti"ga chiqarish yoki "yoqimsiz"ligi sabab o'zgartirish o'z o'tmishiga nisbatan sovuqqonlik va e'tiborsizlik bilan qarashdan boshqa narsa bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biron-bir geografik hudud yoki bir guruh nomini o'zgartirish yoki almashtirishdan oldin bu so'zning kelib chiqishi va tarixini mumkin qadar aniqroq tahlil qilish lozim va bu toponimik tadqiqot oson ish bo'lmasdan talay vaqt hamda katta kuch talab qiladi. Bizning milliyligimizni, tariximizni o'zida mujassam etgan nomlarni shunchaki quloqqa yoqmaganligi tufayli o'zgartirish esa beparvolikdan boshqa narsa bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. - Самарқанд, 2015. - 123 б.
2. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. - Тошкент, 1985. - 104 б.
3. Hakimov Q., Toponimika. - Toshkent, 2016. - 361 b.

4. Hakimov Q., Mirkamilov M. Toponimika. - Toshkent, 2020. - 343 b.
5. Karimov S., Buriyev S. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. - Тошкент, 2006. – 130 б.
6. Karimov S. va boshqalar. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug'ati. – Samarqand, 2025 –
7. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. - Toshkent, 2007. – 80 b.
8. Qorayev S. Toponimika. - Toshkent, 2006. – 320 b.
9. Sattorov A. Nurga burkanaётган Nurobod. – Тошкент, 2022. – 239 б.
10. G'ulomov P. Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. - Toshkent, 2005. – 75 b.
11. Ўринбоев Б. *Асрлардек барҳаёт номлар*. - Самарқанд, 2003. - 264 б.
12. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. - Toshkent, 2022. – 624 b.
13. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nurobod>
14. http://t.me/nur_press